



[tuxtayevxakim0@gmail.com](mailto:tuxtayevxakim0@gmail.com)

## QADRIYATLAR SOHASI VA AKSILOGIYA QONUNLARI TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOIY TARAQQIYOTGA BOG‘LIQLIGI

To‘xtayev Hakim Primovich

O‘zbekiston Milliy Universiteti “Falsafa va mantiq” kafedrası  
professor v.b., falsafa fanlari doktori

## THE DEPENDENCE OF THE TRANSFORMATION OF THE VALUE FIELD AND THE LAWS OF AXIOLOGY ON SOCIAL DEVELOPMENT

Hakim Primovich Tukhtaev, Acting Professor of the Department of Philosophy and Logic of the National University of Uzbekistan, Doctor of sciences philosophy

## ЗАВИСИМОСТЬ ТРАНСФОРМАЦИИ ЦЕННОСТНОГО ПОЛЯ И ЗАКОНОВ АКСИОЛОГИИ ОТ ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ

Хахим Примович Тухтаев, и.о. профессора кафедры философии и логики Национального университета Узбекистана, доктор философских наук

**Annatsiya:** Maqolada, jamiyat taraqqiyotida qadriyatlar sohasining rivojlanish mazmuni, hamda transformatsiyasining takomillashuvi, milliy qadriyatlarimizning taraqqiy etishida makonga xos ijtimoiy-aksiologik omillarning o‘rni ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** umumbashariy va milliy qadriyatlar integratsiyasi, jamiyat taraqqiyotida qadriyatlar sohasining rivojlanish, ijtimoiy-aksiologik omillar, qadriyatlar sohasining falsafiy-tarixiy tahlili, ma’naviy taraqqiyot, qadriyatlar sohasi va aksiologiya qonunlari transformatsiyasining ijtimoiy taraqqiyotga bog‘liqligi.

**Annotation:** The article reveals the content of the development of values in society and the improvement of their transformation, as well as the role of social and axiological factors that are specific to a particular place in the process of developing our national values.

**Key words:** Integration of universal and national values, development of the field of values in society, socio-axiological factors, philosophical and historical analysis of value fields, spiritual development, and dependence on the transformation of value fields and the laws of social axiology.

**Аннотация:** В статье раскрывается содержание развития ценностей в обществе и совершенствования их трансформации, а также роль социальных и аксиологических факторов, характерных для конкретного места в процессе формирования наших национальных ценностей.

**Ключевые слова:** интеграция общечеловеческих и национальных ценностей, развитие ценностного поля в обществе, социально-аксиологические факторы, философско-исторический анализ ценностных полей, духовное развитие, зависимость от трансформации ценностных полей и законов социальной аксиологии.

**KIRISH.** Jahon miqyosidagi umumbashariy va milliy qadriyatlar integratsiyasi insoniyat ilm-fan hamda madaniyat xazinasini boyitishda ustuvor o'rinni egallab kelmoqda. Biroq umuminsoniy va milliy qadriyatlar tanazzuliga sabab bo'layotgan global manfaatlar to'qnashuvi butun yer yuzidagi insoniyatni jiddiy tashvishga solayotganligi, bu esa zamonaviy sivilizatsiya qadriyatlarini inqirozi insonparvarlik, tinchlikparvarlik, millatlararo totuvlik, erkinlik kabi umumbashariy tamoyillarning baholanishiga sabab bo'layotgan aksiologik qonuniyatlarning yangi ilmiy-amaliy jihatlarini o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jamiyat taraqqiyotida qadriyatlar sohasining rivojlanish, mazmuni, mohiyati hamda transformatsiyasining takomillashuvi, buyuk xalqimizning uzoq davlatchilik tarixi, an'analari, qadriyatli jarayonlar bilan bogliqdir. Maqolamiz mavzusiga aloqador falsafiy-aksiologik muammoni shu tarzda talqin qilish xalqimiz qadriyatlarining namoyon bo'lishi, tarixiy taraqqiyot mobaynida tobora takomillashib, yangilanib, ijtimoiy hodisa sifatida harakatini, zamondan zamonga o'tishdagi o'zgarishlarni o'rganishga zamin yaratadi.

O'zbek xalqining ming yillarga tengdosh ma'naviy-madaniy merosini o'rganish shundan dalolat beradiki, milliy qadriyatlarimiz o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmagan. Ularning vujudga kelib, taraqqiy etishida makonga xos ijtimoiy-aksiologik omillar asos vazifasini o'tasa, millatimizga xos ma'naviy-axloqiy sifatlar mazmun-mohiyatini boyitgani shubhasiz. Shu ma'noda, xalqimizga xos jamoaviylik tuyg'usining qadriyatlar sohasida aks etishi sohadagi ijtimoiy-aksiologik omillarning kelib chiqishi va transformatsiyasining tub mohiyatini namoyon etadi. «Sharq olamida, jumladan, O'rta Osiyo sharoitida jamoa bo'lib yashash tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo'llab-quvvatlab hayot keshirishga zamin tug'diradi. Shu ma'noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz... Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, qadriyatlar sohasining negizi sifatida

vujudga kelgan, ongu shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning, ma'naviy merosning amaliy ifodasidir».[1,148]

Bundan kelib chiqadiki, jamiyatimiz qadriyatlar sohasi va transformatsiyasiga o'z ta'sirini o'tkazadigan aksiologik omillar zamondan zamonga, ajdoddan avlodga meros sifatida yashab keladi. Jamiyat tafakkuri va amaliy hayotidagi aksiologik madaniyat bilan o'tgan davrlardagi aksiologik munosabatlar birgalikda qadriyatlar sohasi transformatsiyasi uchun muhim tamoyilga aylanadi.

Jamiyat hayotining hamma sohasida ko'zga tashlanadigan aksiologik o'zgarishlar transformatsiyasi ijtimoiy jihatdan madaniy taraqqiyot bilan birga hayotiy qarashlarning o'zgarishi natijasi bo'lishi mumkin. Qadriyatlar sohasi transformatsiyasi jamiyat a'zolarining birdamlikdagi harakatlari samarasi sifatida aksiologik madaniyat va mafkura uchun muayyan mezon sanaladi.

Shu ma'noda, jamiyat hayotida xalq tarixi va taraqqiyotida ro'y bergan aksiologik jarayonlar, uning boshqa xalqlar tomonidan istilo etilishi yoki bunday istilodan qutilib, o'zi mustaqil rivojlanishi bilan bog'liq voqea va hodisalar muqarrar ravishda aks etadi. O'z navbatida, bu nafaqat uzoq o'tmish davrlar, balki bugungi mustaqillikka erishilgan davr voqeliklari ham jamiyat qadriyatlar sohasi transformatsiyasida aks etishi xususida fikr yuritish imkonini beradi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

Aksiologiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tabiati, tarkibi, standartlari va bahosi, qadriyat hodisasini moddiy va ma'naviy jarayonlar rivojida ahamiyati, obyekt va subyekt qadriyatini turli xalqlar, millat va elatlar hayotidagi o'rni o'rganiladi. Fransuz faylasufi Pol Lapi (1869-1927-yy.) bu fanni ifodalash uchun «Iroda mantig'i» asarida grekcha axios (qiymat) va logos (nazariya) asosida aksiologiya so'zini shakllantirgan.

G'arb falsafasi tarixida faylasuflar qadriyatni juda erta o'rganishgan. Qadimgi Yunonistondagi Pifagorchilar qadriyatning mohiyati sonda, masalan, salomatlik «7», adolat esa kvadrat sonda, deb hisoblashgan. Aflotunning fikricha, qadriyat aqlning mohiyati bo'lib, g'oyani odamlar sezgi orqali idrok etadi va u iyerarxik tizimga ega. Arastu qadriyat inson manfaatida yotadi, deb hisoblagan bo'lsa,

Epikurning fikricha, baxt – qadriyat. Stoiklar fazilatni qadriyat deb bilishgan. Oʻrta asrlar xristian ilohiyotshunosligi Xudoni oliy qadriyat, zohidlik, xudoga intilish, keyingi hayotga umid qilishni esa eng ulugʻ qadriyatlar deb hisoblagan. Uygʻonish davri faylasuflari oqilona hayot kechirishni, erkinlik va tenglikka intilishni, inson mavqei va qadr-qimmatini yuksaltirishni insoniy qadriyat deb bilishgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari olimlari va mutaxassislari ham ushbu mavzuda sezilarli tadqiqotlar olib borganlar hamda ushbu sohadagi izlanishlar bugungi kunda ham davom etmoqda.

Ushbu mavzuning ildizlari qadimgi Sharq tarixi va qadriyati, «Avesto» asari va u yaratilgan zamonlarga, mumtoz xalq ogʻzaki ijodida saqlanib qolgan gʻoya va qarashlar shakllangan davrlarga borib taqaladi. Keyinroq bu mavzu Imom Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Margʻinoniy, Amir Temur, Ulugʻbek, Navoiy, Bobur va boshqa allomalarimizning gʻoya va qarashlarida, ularning faoliyati va amaliy ishlarida oʻz ifodasini topgan. Bu borada xalqimizning mustaqillik yillaridagi bunyodkorlik ishlari, davlatimiz rahbarlarining mustaqillik yillaridagi faoliyati, asarlari va dasturlarida qadriyatlar masalasiga alohida ahamiyat qaratilayotganini taʼkidlash zarur albatta. Shuni alohida etirof etish kerakki, Ustoz faylasuf olimlarimiz J.Tulenov, E.Yusupov, Z.Gʻofurov, H.Shayxova, I.Saifnazarov, Q.Nazarov, O.Musurmonova, U.Qoraboyev, G.Tulenova, G.Maxmudova, M.Nurmatova, M.Qahhorova, Sh.Madayeva, R.Roʻziyeva, N.Temirova, A.Qambarov, M.Mavrulova, M.Komilova kabi mutaxassislar maqolamiz mavzuning ayrim masalalari boʻyicha ilmiy tadqiqotlar olib borishganini qayd etish lozim.

Akademik Jondor Tulenov «Inson va insoniyat uchun ahamiyatli boʻlgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat neʼmatlari, hodisalari majmuini tushunmogʻimiz lozim» [2,12] deb qadriyatga taʼrif bergan bolsalar, akademik Erkin Yusupov esa «qadriyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyotida shakllangan va rivojlangan, oʻtmishda va hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy, iqtisodiy, maʼnaviy taraqqiyotiga ijobiy taʼsir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy

ahamiyat kasb etgan moddiy va maʼnaviy boyliklardir»[3,323] – deb taʼrif beradi.

Olim Q.Nazarov taʼrifiga koʻra “qadriyat – voqeylikning turli koʻrinishlari, narsa, voqea, hodisa, jarayon, tabiat va jamiyatga oid jihat, xususiyat va boshqalarning biror subyekt uchun ijtimoiy qadri va ahamiyatini anglatadigan falsafiy-aksiologik tushncha. U aksiologiyaning asosiy kategoriyasi hisoblanadi va oʻzining muayyan tuzilishiga (kategorial apparatiga) ega.”[4,50]

Maqolani tadqiq etishda tarixiylik, analitik tahlil, induksiya, deduksiya, analiz, sintez, germenevtik kabi usullardan foydalanildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

Qadriyatlar sohasining falsafiy-tarixiy tahlili qadim davrlardan boshlangan. Oʻzbek xalqi dostoni «Alpomish»da muhabbat va doʻstlik, Toʻmaris hamda Shiroq toʻgʻrisidagi afsonalarida vatanparvarlik, fidoyilik, xalqparvarlik, Xotami Toy haqidagi ertaklarda qoʻli ochiqlik, bagʻrikenglik, hokisorlik, «Kuntugʻmish»da oila va farzandga muhabbat ruhi badiiy tasvirlangan.

Maʼlumki, yurtimizda azal-azaldan turli madaniyat, konfessiyalar, millat va elatlar biri-birini oʻzaro taʼsiri bilan boyitib, taraqqiy etib kelgan. Tabiiyki insoniylik, mehmondoʻstlik, bahamjihatlik, birdamlik, Vatanga sadoqat, fidoyilik, oʻzaro hurmat kabi qadriyatlar milliy-etnik, konfessional nizolarni oqilona bartaraf etish anʼanalari oʻzbek xalq ogʻzaki ijodida ham oʻz ifodasini topgan.

Ayni paytda, xalq ommasi hayot tarzi, dunyoqarashi, ijodi oddiy bayonchilik darajasida boʻlsa-da, aqidaparastlik, tariqatchilik, muayyan yoʻnalishlarga xos baʼzi cheklanganliklardan bir muncha ozod va erkin boʻlib, turli doston, latifa, matal, masal, maqol va boshqalar vositasida xilma-xil ezgu gʻoya va qarashlar, olijanob maqsad va histuygʻularni aks ettirish imkonini berar edi. Bu esa xalq dunyoqarashi va tafakkur tarzining rivojiga xizmat qilgani ham shubhasizdir.

Eng qadimgi manbalardan biri boʻlgan «Avesto» kitobida xalqlarimiz umuminsoniy qadriyatlari mohiyati va ahamiyati keng aks etgan, unda yaxshilik, yorugʻlik, barkamollik, hurfikrlilik timsoli boʻlgan afsonaviy xudo Axuramazda - qiyofasida yaqqol namoyon boʻladi. Umuminsoniy qadriyatlar esa «toʻgʻri soʻz» va «yaxshi ish»ida oʻz ifodasini topadi. Ana shunday «fazilatlariga ega

bo'lgan kishigina yomonlik ustidan g'alaba qilish, yaxshilik urug'ini sochish ishiga ko'maklashishi, yaxshi nom qoldirishi, boshqalarning tahsiniga va minnatdorchiligiga sazovor bo'lishi mumkin".[4,22]

Xalq og'zaki ijodiyoti ilmiy-falsafiy tafakkurni oziqlantirish bilan bir qatorda, zaminimizda yashagan kishilarda sog'lom, erkin va mustaqil tafakkur tarzini shakllantirishda ta'sir ko'rsatgan. Zero, olamga dong'i ketgan, jahon falsafasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Xorazmiy, Farg'oniy, Buxoriy, Termiziy, Forobiy, Moturidiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Mirzo Ulug'bek va boshqa ulug' siymolarimiz ijodi va me'rosi ham ana shu manbadan oziq olgani shubhasiz. Xalqning milliy iftixoriga aylangan bu muhtasham meros asrlar davomida har bir kishiga juda katta ruhiy-ma'naviy quvvat baxsh etib kelmoqda.

Afsuski, «insoniylikka xilof bo'lgan, bashariyatning kelajagiga, uning hamjihat yashashiga xavf soladigan bunday mafkura shakllari dunyoning turli burchaklarida hozir ham mudhish qiyofasini namoyon qilmoqda».[5] Tarixda istilochilar zulmiga duchor bo'lmagan, istibdod iskanjasida ezilmagan xalq topilmasa kerak. Bizning xalqimiz esa mustamlakachilik zulmiga juda ko'p bor ro'baro' bo'lgan. Ba'zan uzoq yillar asoratda yashasa, ba'zan tez fursatda ozodlikka erishib, o'z taraqqiyot yo'lidani olg'a borgan.

Yurtimizda haqli ravishda «Ikkinchi Renessans» deb nomlanayotgan Temuriylar davri qadriyatlar sohasi transformatsiyasining iqtisodiy, ijtimoiy, aksiologik asoslari markazlashgan davlatning bunyod etilishi, faqat moddiy farovonlik emas, ilm-fanning rivojlanishi, aql-zakatda tengsiz qomusiy allomalar yetishib chiqqanligi hamda ularning o'lmas asarlari yaratilgani bilan xarakterlanadi.

Temur va temuriylar ma'naviy taraqqiyot uchun aksiologik asoslarni yaratish bilan birga, o'z davri odamlarining dunyoqarashi, qadriyatlari, kelajak rejalari rivojiga zamin ham hozirlagan. Shuning uchun xalqimiz mustahkam davlatchilik an'anasi, yuksak ma'naviy qadriyatlarni meros qoldirgan Amir Temur nomini e'zozlab keladi. Bu mavzuning qadriyatlar tadriji va aksiologiya qonunlari amaliyoti bilan bog'liq umumbashariy jihati ham bor. Ya'ni, uzoq tarix davomida muttasil erk, yuksak qadriyat va o'zligini anglash yo'lini

tutgan milliy sivilizatsiya bag'rida kamol topgan donishmand ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy meros jahon xalqlari ma'naviyatiga ulkan xazina bo'lib qo'shilib, ular ehtiromini qozongan.

Ushbu asoslarning poydevori esa mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tilgani, kuchli davlat qurilganidir. Ana shunday ijtimoiy-aksiologik taraqqiyot va ma'naviy yuksalish tufayli mamlakatda tinchlik, adolat, farovonlik o'rnatildi. Amir Temur asos solgan temuriylar davri Renessansning asosiy xususiyatlaridan biri ham islohotlar samarasi tufayli madaniy qadriyatlar sohasidagi tub o'zgarishlardir.

Mazkur masalani atroflicha tahlil qilish qadriyatlar sohasining uzoq asrlar mobaynida xilma xil siyosiy o'zgarishlar, aksiologik evrilishlar, davlatchilik an'analari, qaysidir davlatning paydo bo'lishi-yu taraqqiyoti va tanazzuli, ma'lum bir davrdagi milliy davlatchilik uchun kurashlar bilan bog'liq juda serqirra jarayonlarni bosib o'tganligini ko'rsatadi. Bundan chiqadigan xulosa shuki, yosh avlodning ongida bunyodkorlik g'oyalari, xalqqa sadoqat, tarixiy xotirani, milliy o'zlikni asrash kabi tuyg'ularni mustahkamlashda qadriyatlarining o'rni beqiyos.

Qadriyatlar sistemasini yangi zamonga mos qirralarini ochib berishda Sayid Nasafiy, Yusuf Qorabog'iy, Xuvaydo, Mirzo Bedil kabi mutafakkirlar ijodlariga nazar solarkanmiz, masalan, Boborahim Mashrab (1657-1711 yy.) uchun Qalandarlik asosiy qadriyat emas, balki adolatsizlik, zo'ravonlik, munofiqlik, aldamchilik va yomonlikning ko'rinishlariga qarshi kurash, ularni fosh qilish vositasi, haqvisoli va haqiqatga erishish yo'li ustuvor bo'lgan. Uning ijodini bosh qahramoni - shoirning o'zi. Bu ijoddagi asosiy qadriyat «ikki jahonga sig'magan», «gavhari lomakon» bo'lgan insondir.

XIX asrdagi davr qadriyatlari tizimida istilochilarning g'oyalari o'z aksini topganligi, bu davrda yerda xalq turmush tarzida bosib olingan o'lkalarga xos ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'la boshlagani, kishilarni ma'naviy va madaniy qoloqlikda saqlanish holatlari, ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib qilgan Ahmad Donish (1827-1887 yy.), Berdaq Qarg'aboy o'g'li (1827-1900 yy.), Sattorxon (1843-1902 yy.), Furqat (1858-1909 yy.), Muqimiy (1859-1903 yy.), Anbar otin (1870-1915 yy.) kabilarning asarlarida yaqqol

namoyon bo'lgan. Ular asarlarida qadriyatlar, ilmparvarlik, insonparvarlik g'oyalari kuylangan. Bu ayniqsa Ahmad Donishning «Navodir ul-vaqoe»[6] («Nodir voqealar») asarida namoyon bo'lgan.

XIX asr oxirlarida «qadimlar» va «jadidlar» oqimlari vujudga keldi. Ma'rifatparvar alloma XX asr boshlaridagi Turkiston jaddidchilik harakatining rahnamosi Maxmudxo'ja Behbudiy (1875-1901 yy.), o'sha davr ijtimoiy – siyosiy hayotining yirik namoyandasidir. Uning ijtimoiy falsafiy qarashlarida ma'rifat g'oyalari asosiy o'rin tutadi. Alloma odamlarni dunyoviy fanlarning yutuqlarini o'zlashtirib olishni o'z davri ijtimoiy talablari, asosan shakllangan axloq me'yorlariga amal qilish, insonparvarlik g'oyalarini shakllantirish hamda islom dini ta'limotlari bilan tanishishga undagan. Behbudiy ilmu ma'rifat omma tomonidan o'zlashtirgandagina ijtimoiy taraqqiyotda hal qiluvchi kuchga aylanishini e'tirof etadi. U millat ozodligini, ma'rifatparvarlik darajasi bilan bog'lab ma'rifatni ozodlikka erishishning yagona omili deb ishongan. Behbudiy, istiqloq haqida fikr yuritarkan, har qanday zo'ravonlikni rad etadi. Uningcha zo'ravonlik g'ayri axloqiy, binobarin g'ayri insoniydir.

Ma'rifatparvar olim, shoir, dramaturg, jurnalist, davlat va jamoat arbobi Abdullo Avloniy (1878-1937 yy.) ijodi, ayniqsa uning «Turkiy guliston yoxud axloq» [7] kitobida umuminsoniy-ma'naviy qadriyatlar tizimi ta'riflab berilgan.

Qadriyatlar sohasi va aksiologiya qonunlari transformatsiyasining ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqligi, totalitar tuzum va mustamlakachilik qoldiqlarining aksiologik oqibatlarini sobiq ittifoq davrida yanada yaqqolroq namoyon bo'lgan edi. Bu jarayonning qanday kechganligini o'sha davrdagi milliy falsafamizning holatiga doir quyidagi qisqa tahlilning o'ziyoq yaqqol tasavvur qilish imkonini beradi.

**XULOSA.** Bizning yurtimiz o'tmishiga xolisona nazar tashlagan har bir kishi bir emas, ikki marta bunday noyob jarayon, ya'ni Renessans ro'y berganini kuzatishi mumkin. Vatanimiz tarixidagi «Ilk o'rta asrlar» deb yuritiladigan milodning IX – XII asrlari hamda Amir Temur va temuriylar davri

insoniyat tarixining ana shunday buyuk yuksalish davrlari bo'lgani, o'ziga xos ulkan Renessans ro'y bergani shubhasiz.

Bu jihatdan, Markaziy Osiyo va ayniqsa, mamlakatimizda qadriyatlar to'g'risidagi g'oyalar rivoji va uning jahon sivilizatsiyasiga ta'sirini ilmiy o'rganish mavzuning muhim jihatlarini anglashga yordam beradi. Darhaqiqat, har qanday xalq, birinchi navbatda buyuk zotlari, insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo'shgan olim-u ulamolari bilan g'ururlanadi. Yangi O'zbekistonning zamonaviy fani ham o'zining ko'hna tarixi, boy merosiga tayanadi.

Shu bilan birga, falsafiy nuqtai nazardan masalaga yondoshilsa, tajriba har bir davrda ham, qanday mafkura hukmron bo'lishiga qaramasdan, fanda turlicha fikrlar, xilma-xil qarashlarning vujudga kelish jarayoni butunlay to'xtab qolmasligi, biror bir tarzda davom etishidan dalolat beradi. Tafakkur qulligi va fikr qaramligi falsafaning mazmun-mohiyatini belgilagan sobiq ittifoq davrida ushbu jarayon nihoyatda qiyinchilik bilan amalga oshgan, albatta.

Hayotimizning barcha sohalari kabi, mazkur jabhada ham o'tmishdan butunlay ko'z yumish emas, balki undan saboq olishimiz va xulosa chiqarmog'imiz, bugungi kundagi mustaqillik va yangi O'zbekiston davridagi qadriyatlar talabi va mavjud imkoniyatlar darajasida izlanmog'imiz va harakat qilmog'imiz lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент, 1998.
3. Юсупов Э. Фалсафа – Тошкент: Шарқ, 1999.
4. Назаров Қ. Aksiologiya (Қадриятлар фалсафаси). – Тошкент: Академия, 2011.
5. Фалсафа қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004.
6. Аҳмад Дониш Наводир ул-вақое / Нодир воқеалар. – Тошкент: Фан, 1964. – 361 б.
7. Абдулло Авлоний Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.